SHAYBONIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI HAMDA MADANIY HAYOT UYG'UNLIGI

Mustaqil tadqiqotchi **:Botirov Nodir Sadir o'g'li**

Annotatsiya: *Ushby maqolada Buxoro xonligi va unda Shayboniyxonlar sulolalari, ularning davridagi ijtimoiy , siyosiy hamda madaniy sohalaridagi taraqqiyotlari , shu bilan birga me'morchilik ishlaridagi yutuqlari haqida to'xtalib o'tilgan. Shayboniylar XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236-yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468 yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi.*

Аннотатция: *Статья Ушби посвящена Бухарскому ханству и династиям Шайбани-хана, их социальному, политическому и культурному развитию в их время, а также их достижениям в архитектурных работах. С XI века шайбаны властвовали над кыпчаками и другими тюркскими племенами на территориях от низовьев озера Балхаш и Сырдарьи до низовьев Днепра. Золотоордынское государство, основанное Ботухоном в 1236 г., в начале XIV в. разделилось на две части, и в его восточной части образовалось Белоордынское государство, именуемое в некоторых исторических источниках «Узбекской страной». В этой местности пятый сын Джоджи-хана, Абулхаир-хан (1412-1468), из рода Шайбан, основал в 1428 году независимое государство.*

Annotatsiya: *This article focuses on the Bukhara Khanate and the Shaybani Khan dynasties, their social, political and cultural developments during their time, as well as their achievements in architectural works. Since the 11th century, the*

Shaibanis ruled over the Kypchaks and other Turkic tribes in the areas from the lower reaches of Lake Balkhash and Syr Darya to the lower reaches of the Dnieper River. The Golden Horde state, founded by Botukhon in 1236, was divided into two parts at the beginning of the 14th century, and the White Horde state, called the "Uzbek country" in some historical sources, was established in its eastern part. In this area, the fifth son of Jozhikhan, Abulkhairkhan (1412-1468) from the Shayban clan, founded an independent state in 1428.

Kalit so'zlar: *Abulxayrxon, Shayboniylar sulolasi, mumtoz tarixiy asarlar, ilm-fan, me'morchilik, Buxoro darvozalari.*

KIRISH

XV asrning 90-yillarida Movarounnahrdagi temuriylar saltanati amalda mustaqil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shahzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari o'tirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bo'lish orzusida edilar. Bu niyatga etish uchun ular o'rtasida o'zaro ichki nizo avj olib ketgan bo'lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi.

"Tarixga e'tibor qaratsak, Shayboniylar asli XI asrdan boshlab Balxash ko'li va Sirdaryoning quyi oqimlaridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarda qipchoq va boshqa turkiy qabilalarning hukmronlik qilgan. Botuxon 1236- yilda asos solgan Oltin O'rda davlati XIV asr boshlarida ikki qismga ajralib ketgan bo'lib, uning sharqiy qismida ayrim tarixiy manbalarda "O'zbeklar mamlakati" deb yuritilgan Oq O'rda davlati tashkil topdi. Bu hududda Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468 yy.) 1428-yilda mustaqil davlatga asos soldi. Lekin urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468- yilda Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shohbaxt Shayboniyxon bobosining davlatini qayta tiklab, Shayboniylar sulolasiga asos soldi. Buxoro xonligiga Shayboniylar

sulolasi asos sogan va Buxoroni 1500-1601-yillar davomida boshqargan. Bu sulolaga Muhammad Shayboniyxon asos solgan bo‘lib, XV-asr oxiri va XVI asr boshlarida toju-taxt uchun o‘zaro kurashayotgan temuriy shahzodalarning o‘zaro nizolari oqibatida Movarounnahrning asosiy shaharlari: Samarqand va Buxoroni osonlik bilan egallab, yangi davlatga asos soldi. Keyinchalik Movarounnahrning qolgan hududi va Xuroson ham bu davlat tarkibiga kiritildi.”[1]

Asosiy qism. Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyandalarning tutgan o’rni katta bo’lgan. Avvalo, ularning o’zlari nihoyatda o’qimishli shaxslar edilar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko’chkinchixon, Ubaydulloxon, Abdulazitzxon kabi Shayboniylar turkiy va forsiyda she’r bitganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo’lganlar. Muhammad Shayboniyxon yoshligida ta’limni Buxoro madrasasida olgan. Ubaydulloxonning musiqa ilmiga katta rag’bati bo’lgani, musiqiy asboblar chalgani, nozik xusnixat egasi bo’lgani ma’lum. Shayboniylar davrida ham tarix ilmi juda rivoj topgan.

“XVI asr tarixini yoritib beruvchi “Tavorixi guzidai nusratnoma”, Mulla Shodiyning “Fathnoma”, Binoiyning “Shayboniynoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abdulloh Nasrullohning “Zubdat al-asror”, Fazlulloh Ro’zbekxonning “Mehmonnomai Buxoro”, Zayniddin Vosifiyning “Badoi ul vaqoye”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari Muhammad Shayboniyxon davrida Binoiyning “Ajoyib ul Maxluqot” geografik asarini ham aytishimiz mumkin. XV asrning ikkinchi yarmida milliy – madaniy markazi bolgan Hirot, XVI asrga kelib o’z mavqieni yo’qotdi, avval Shayboniy, keyinchalik esa Eron shohi Safoviy hukmdorlarning chekka shaharlaridan biriga aylanib qoldi. Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga ko’chgandi. Bu shaharlarga faqatgina O’rta Osiyo territoriyasidangina emas, balki Eron, Afg‘oniston, Hindiston shaharlaridan ham bu yoki u sohalarning ishtiyoqmandlari kelar edilar. Natijada bu o’lkada o’sha zamon

madaniyati va adabiyotining turli sohalarida ancha – kozga ko'ringan vakillar yashab ijod etishgan. XVI asrda Movarounnahrda adabiyot, tarix fani me'morchilik va tasviriy san'at rivojlanib bordi. Poeziya juda ravnaq topdi. Hasan Buxoriy Nisoriy (1566 yil)ning "Muzakkir ul - ahbob" va Mutribiyning (1604 – 1605 yillar) "Tazkiroti Shuaro" nomli O'rta Osiyo antolgiyalari buning shohididir."[2]

XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahrda O'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlarning paydo bo'lishi muhim hodisadir. "Tarixi guzidayi Nuratnoma" shu sohadagi ilk asarlaridandir. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni ham o'zbek tilida yozilgan. Bu ikki asar, garchi Shayboniyxonning topshirig'i va ishtiroki bilan yozilgan bo"lsada, har holda O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi va adabiyotiga doir faktlarga asoslangan juda qiziq materiallarni o'z ichiga olgan. XVI asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri, buyuk shoir, adib, tarixchi va olim Boburdir. Boburnomani A. Beverij Boburga shunday baho bergan edi: "… sahovatliligi, mardligi, talantligi, fanga, san'atga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi jihatidan olib qaraganda, Osiyodagi podsholar ichida Boburga teng keladigan birorta podsho topa olmaymiz".

" Bobur 12 yoshidan boshlab umrining oxirigacha deyarli uzluksiz urush va yurishlar bilan band bo'ldi. Lekin, shunga qaramay, u keng va chuqur bilim olgan hamda ajoyib iste'dodi bilan o'z davrining yirik madaniyat arboblaridan biri bo'lib yashagn edi. U qaerda bo"lmasin, doimo ilm – fan, san'at va adabiyot oqillari bilan yaqindan aloqa bog'lar, ularga homiylik qilar va turli ilmiy – adabiy suhbatlar hamda munozaralar uyushtirar edi. Bobur 16 – 17 yoshlaridan boshlab, badiiy ijodiyot bilan shug'ullanadi. Shayboniylar davrida kitobat ishlariga qo'lyozmalarni husnixat bilan ko'chirish yo'li bilan nusxani ko"paytirish, ularni voqeaband miniatyuralar bilan bezatish, chiroyli va chidamli muqovalarga jamlashga katta e'tibor berilgan. Shu tariqa, Alisher Navoiy homiyligida Kamoliddin Behzod va

uning safdoshlari tomonidan yaratilgan Hirot rassomchilik maktabi vujudga keladi. Zotan bu davrga kelib, bu ham, o'zbeklarning bu boradagi markazi ham Hirotdan Buxoroa ko'chgan edi. Shayboniylardan Abdulazizxon va Abdullaxon

IIning kutubxonalari o'sha zamon musulmon Sharqidagi eng yirik kitob xazinalaridan edi."[3]

Shayboniylar davrida mamlakat poytaxti maqomini olgan Buxoro adabiyot, san'at, me'morchilikning badiiy yuksak namunalari o'zida mujassam qilgan shaharga aylandi. Hasanxo'ja Eisoriy, Shayx Jalol, Mushfiqiy, Mavlono Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy, Mavlono Kasiriy Buxoriy va boshqa qator shoirlarning ijodi shu davrda badiiy yuksakllikka erishdi. E'tibolrlisi shundaki, bu davrda ijod qilgan shaxslarda shayxlik xislatlari va qozilik amallari bilan birga nazmga rag'bat va oshuftalik kuchli edi. Natijada ular tomonidan ko'plab she'riy misralar, g'azallar yozilib, Buxoro adabiy muhitining jozibador namunasi sifatida bizgacha etib keldi. Ularning ayrimlari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar diqqatga sazovor. Fatxullaxo'ja qozi she'riyatga bo'lgan yuksak ehtiromi oqibatida qozilik vazifasidan voz kechib, ash'or bitishni o'zining asosiy mashg'ulotiga aylantiradi. Mavlono Komiyning asosiy kasbi to'quvchilik bo'lsa-da, shoirlik bobida ham o'z zamonasining e'tiborli ijodkorlaridan bo'lgan. To'quvchilikdan bo'shagan paytlari she'rlar bitib, devon ta'lif qilish bilan shug'ullangan. Mavlono Husayn Turkistoniy Buxorodagi Ulug'bek madrasasida mudarrislik qilish bilan birga, she'rlar mashq qilgan va aruz vaznida she'r bitish borasida yutuqlarga erishgan. SHuningdek, nazmdagi muammo sohasini puxta egallagan. Muammo janrida istalgan tugunni osonlikcha echa olgan. Musiqa sohasida ham ovozasi keng tarqalgan ijod ahlidan edi.

"Ilohiyot ilmi va shoirlikda nom qozongan shaxslardan biri Shayx Jalol edi.To'liq nomi Shayx Jalol Hiraviy Buxoriy. Tug'ilgan yili manbalarda qayd etilmagan. Lekin vafoti sanasi aniq ko'rsatilgan, ya'ni hijriy 955- (milodiy 1548-1549) yili 70 yoshda vafot etganligi zikr etilgan. Demak, Shayx Jalol 1478- yilda) Hirotda tavallud topgan. O'z ustozi Shamsiddin Muhammad Rujiydan tariqat asoslarini o'rganadi. Shamsiddin Muxammad Rujiy o'z davrining mutasavvif olimi, shoiri, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning do'sti edi. Har ikkalasi ham Sa'diddin Koshg'ariydan ta'lim olishgan. Shamsiddin Muxammad Rujiy 1489 -yilda vafot

etgach, Shayx Jalol Buxoroga keladi. Buxoroga kelishining boshqa sabablari ham mavjud. XVI asr boshlarida Hirotda sunniy va shia ulamolari o‘rtasida keskin nizolar yuz berib, har ikkala tomon bir-birini ta’qib qilishga kirishadi. Ko‘plab sunniy ulamolari, shoirlar, tarixchilar, musavvirlar Movarounnahrga ko‘chishga majbur bo‘ladilar. Bular orasida Shayx Jalol ham bor edi. Shayx Jalol Hirot Muxammad Shayboniyxon tomonidan olingandan keyin Buxoroga kelgan bo‘lishi kerak.”[4]

Shaybonitylar davri Buxoro me’morchiligining badiiy kompozitsion ko‘rinishlari darvozalar, masjid, madrasa va boshqa inshootlar qurilishida o‘z ifodasini topgan. Shayboniylardan Abdullazizxon va Abdullaxon davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o‘rab olindi va darvozalar qurildi. Abdulazizxon barpo ettirgan qal’a devorlarini Abdullaxon g‘arbga tomon kengaytirdi va 11 darvoza barpo etildi . Ular quyidagicha nomlangan: Samarkand darvozasi, Hazrati Imom darvozasi, O‘g‘lon darvozasi, Talipoch darvozasi, Shergiron darvozasi, Qorako‘l darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Salloxona darvozasi, Qavola (Qarshi) darvozasi, Mozori Sharif darvozasi kabilar.

“XVI asr Buxoro me’morchiligida asosiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha har biri taxminan uch o‘n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin. Birinchi davr - 1500-1530-yillar, ya’ni Buxoroning Temuriylardan keyingi rivojlantirish davrini o‘z ichiga olib, u asosan Ubaydullaxonning bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq. Unda bir tomondan, Temuriylar davri me’morchiligi ana’nalari hali kuchli bo‘lgan, ikkinchi tomondan, Buxoro me’morchilik maktabining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan davr edi. Bu davr binolarining hali ham boy va sermehnat naqsh-qoshinli sopol, yig‘ma mozaika bezatib turadi. Masalan, XVI asr boshlarida qayta qurilgan Masjidi Kalon kirish kismining naqshi, shuningdek, Masjidi Baland va Xo‘ja Zayniddin masjid-xonaqosining ziynati shular jumlasidandir. Bu obidalarda Temuriylar davriga xos “kundal” zarhal naqshlardan ham foydalanilgan.”[5]

Xulosa qilib aytganda Shayboniylar davrida ham temuriylar zamonidagi yuksalishning ruhi so'nmagan edi. Nafaqat poytaxt shaharlar bo'lmish Samarqand va Buxoroda, balki shular bilan bir qatorda Karmana hududlarida ham bunyodkorlik ishlari davom etar, barcha viloyatlarimizda ham bizkim o'zbeklar bag'ridan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, shoirlar, tarixchilar, ulamolar, san'atkorlar va shu kabi madaniyat, ilm – fan, adabiyot va san'at ahli samarali va barakali faoliyat ko'rsatar edilar. Shaybiniylar davrida ilm - fan madaniyat rivojlanib temuriylar qodirgan meros davom ettirildi. Hukmdorlardan Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi shoirlarni xalqimizning ma'naviy merosiga qo'shgan hissasi nihoyatda katta ekanligi dalillar asosida asoslandi. Shayboniylar davlatida katta qurilish ishlari olib borildi. Shayboniyxon madrasasi, Abdurahm

Sadr madrasasi, Baroqxon madrasasi, Masjidi kalon, Mir arab madrasasi, Abdullaxon, Ko'kaldosh kabi madrasalar, Buxoro darvozalari buni yaqqol misoli sifatida ko'satib berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. – Тошкент: Шарқ, 1999. –Б. 60- 62.

2.O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" jurnali. 2005 yil. №4.

3.Muhammad Solih "Shaybiniynoma". T., 1988 yil. b – 92. 43

4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ машаълига илова, 1993. –Б.45.

5. Бухоро шарқ дурдонаси./ Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.98.